XALQ DEPUTATLARI VOBKENT TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

200300, Vobkent tumani, Imom Buxoriy ko'chasi 55-uy, tel: (65) 33-22-131

2022 - yil 6 - dekabr VI-79-294-2-33-K/22 Vobkent tuman hokimligi

Olis va chekka hududlarda joylashgan yer uchastkasiga mulk huquqi va ijara huquqini auksionga qo'yishda ularning boshlang'ich narxini 50 foizgacha kamaytirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5087-sonli qarorining 4-bandiga ko'ra xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlariga olis va chekka hududlarda joylashgan yer uchastkasiga mulk huquqi va ijara huquqini auksionga qo'yishda ularning boshlang'ich narxini 50 foizgacha kamaytirish vakolati berilgan.

Mazkur qaror talablariga asosan Vobkent tuman hokimligi moliya bo'limi, tuman davlat soliq inspeksiyasi, kadastr agentligi tuman bo'limi, tuman qurilish bo'limi va kadastrlar palatasi tuman filialining tavsiyalari hamda fuqarolarning takliflari asosida tumandagi "Latifsobungar" mahalla fuqarolar yig'inining tuman markazidan chekka hududda joylashganligi sababli mazkur hududdagi yer uchastkasiga mulk huquqi va ijara huquqini auksionga qo'yishda ularning boshlang'ich narxini 50 foizgacha kamaytirgan holda miqdori ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi PQ-5087-sonli qaroriga muvofiq tumandagi "Latifsobungar" mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi Xumriyon, Talpushmon, Yuqori Yangikent aholi punktlarida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan bo'sh turgan yer uchastkasiga mulk huquqi va ijara huquqini auksionga qo'yishda ularning boshlang'ich narxini 50 foizgacha kamaytirish to'g'risidagi Vobkent tumani hokimligi tomonidan tayyorlangan taklifni muhokama etib, yuqorida bayon etilganlarga asosan hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Vobkent tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi “Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5087-sonli qarorining 4-bandiga muvofiq tumandagi “Latifsobungar” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi Xumriyon, Talpushmon, Yuqori Yangikent aholi punktlarida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan bo‘sh turgan yer uchastkasiga mulk huquqi va ijara huquqini auksionga qo‘yishda ularning boshlang‘ich narxini 50 foizgacha kamaytirish to‘g‘risidagi Vobkent tumani hokimligi tomonidan tayyorlangan taklifni 1-ilovaga muvofiq ma’qullansin.

2. Vobkent tuman bosh yuristkonsulti (O.Xidirov) mazkur qarorni O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga jamoatchilik muhokamasi o‘tkazilishi uchun joylashtirilishini ta’minlasin.

3. Tuman hokimligi axborot xizmati Sh.Sharopov, “Vobkent hayoti” tuman gazetasi tahririyati (O‘.Istatov), Savdo-sanoat palatasi Vobkent tumani tadbirkorlikka ko‘maklashish markazi (S.Tuyev)lar bilan birgalikda mazkur qarorning mazmun-mohiyatini tuman mahalliy ommaviy axborot vositasi hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali tadbirkorlik sub’ektlari va aholining keng qatlamlariga yetkazilishi tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **F.Umarov**

Xalq deputatlari Vobkent tuman
Kengashining
2022 yil 6 dekabrdagi
VI-79-294-2-33-K/22-son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi “Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5087-sonli qaroriga muvofiq tumandagi “Latifsobungar” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi Xumriyon, Talpushmon, Yuqori Yangikent aholi punktlarida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan bo‘sh turgan yer uchastkasiga mulk huquqi va ijara huquqini auksionga qo‘yishda ularning boshlang‘ich narxini 50 foizgacha kamaytirish to‘g‘risidagi Vobkent tumani hokimligi tomonidan tayyorlangan

TAKLIFI

T/r	Mahalla fuqarolar yig‘ini va aholi punktlari nomi	Koeffitsiyent miqdori	Boshlang‘ich qiymat miqdori *(0,01 gektar uchun BHM baravarida)*
1.	“Latifsobungar” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi Xumriyon, Talpushmon, Yuqori Yangikent aholi punktlari	1,00	12,5